



## OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TYUTORLIK FAOLIYATINI JORIY ETISHNING AMALIY-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

*Begaliev N.*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti doktranti*

**Tayanch so'zlar:** tyutor, pedagog, mavkuraviy immunitet, talaba, ta'lim, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni.

**Ключевые слова:** тьютор, педагог, идеологический иммунитет, студент, обучение, высшее образование, образовательный процесс.

**Key words:** tutor, pedagogue, ideological immunity, student, education, higher education, educational process.

Mamlakatimiz xalqining asliy qadiryatlari, yuksak orzu-umidlari, xayrli niyatlari va ulug' ishlarni amalga oshirish yosh avlod tarbiyasiga bog'liq hodisa hisoblanadi. Sababi hozirgi o'quvchi va talabalar avlodi mamlakatni kelajakda rivojlanish va farovonlik tomonga yetaklaydi, aholiga ham ma'naviy kuch-quvvat beradi. Prezidentimiz SH. Mirziyoevning aytib o'tganiday "Farzandlarimizni hurfikrli, zamonaviy kasb -hunardi egallagan, mustahkam hayotiy mavqega ega, haqiqiy vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun aloqida ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi" [1;157-158]. Shu sababli yoshlarda ma'naviy tarbiyani, mafkuraviy immunitetni uzluksiz takomillashtirib, yangisha uslublarini yaratish va hayotga joriy qilib borishimiz zarur.

Hozirgi davrda mavkuraviy kurashlar va information hujumlar yosh avlodning tarbiyasiga yangi talablarni qo'ymoqta. [4:5]. Bu muammolarni hal qilishda talabalarni sog'lom e'tiqodli, ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol, raqobatbardosh kadrlar qilib tarbiyalash oliy ta'lim muassasalari zimmasiga katta masuliyat yukladi. Xususan, bu borada tyutorlik faoliyatini yoshlarning ta'lim olishida dunyo oliy ta'lim muassasalari tomonidan tan olingan qadimiy an'analarning zamonaviy ko'rinishi sifatida rivojlantirish istiqbolda yaxshi natijalar berishi ko'zda tutilmoqda. Biroq hozirga qadar tyutorlik faoliyati



mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida qollanilmaganligi sababli ta'lim tizimida uning qanday ta'sir ko'rsatishi haqida aniq fikrga kelinmagan. Shu bois tyutorlik faoliyatining talabalar ta'lim-tarbiyaga oid mezonlari hamda mexanizmlarini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish zaruriyati paydo bo'ldi.

Bugungi kunga kelib tyutorlik faoliyati muommosiga olimlar tomonidan uning amaliy faoliyati jaroyoniga to'qtalib o'tadilar. Ammo, tyutorlik faoliyati mexanizmining mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimiga aloqador holda shakllantirish, talabalar bilan munosabatlarni shakllantirish, natijaviy faoliyatni amalga oshirish bo'yicha muommolarni o'rganish sust darajada ekanligini ko'rsak bo'ladi. Shu sababli bu dolzarb masala bo'lib qolmoqta.

Tyutorlik faoliyati katta tarixga ega kasb bo'lib, bu tarbiyaviy konsepsiya vaqt o'tishi bilan turli davlatlarda turli ko'rinishlar bilan o'zgarib borgan. Umumlashtirib aytganda tyutorlik bir yoki bir nechta talabalarning nazoratchisi bo'lib, ular talabalarni ta'lim muassasasida va asosan darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularni yetuk shaxs etib tarbiyalash va ularning shaxs sifatida rivojlanishiga, mas'ul kasb egasi bo'lib shakllanishida tarbiyalovchi shaxs demakdir. Tyutorlik faoliyati katta tarixqa ega bo'lib, har xil atamalar bilan atab kelingan, XII asrga kelib gina Anglo-sakson dorilfununlarida tyutorlik faoliyati aloqida kasb sifatida joriy etilgan. Tyutorlik ta'lim jaroyiniga norasmiy va strukturasiz ko'rinishda kirgan bo'lib, uning tarixi Qadimiy shahar-davlatlar vujudga kelgan davrlarga borib taqaladi. Qadimgi davrda tyutorlik faoliyati rasmiya ravishda bo'lmay uning asosiy maqsadi o'quvchilarning fan ko'nikmasin shakllantirish xizmatini bajarib, ta'lim jarayoni bilan birga olib borilgan. Tyutorlik turli davlatlarda har xil atamalar bilan atalgan bo'lib, misol sifatida Qadimgi Gretsiyada pedagog deb atalgan bo'lsa, Qadimgi Rimda lotin tilidan kirib kelgan tutor degan nomlari bilan atalgan va ular o'zining amalga oshiradigan xizmatiga qarab bir qancha guruhlarga ajratilgan[2;4].

Tyutor - talabalarning shaxsiy rivojlanishiga universitet, respublika va xalqaro miqyosida tanlovlarga munosib turda qatnashishga, shu jumladan, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga yordam beruvchi inson bo'lib, u yigit -qizlarni kasbga yo'naltirish, Vatanga muxabbat ruhida tarbiyalash, har xil ilmiy to'garaklarga tortish, muammo va kamshiliklarni o'rganib, ularga atroflicha yechim topish bilan shug'ullanadi.

Hozirgi davrda tyutorlik faoliyati faqatgina ta'lim muassasalarida emas, masofaviy tarzda amalga oshiriladigan tyutorlik xizmatlari ham mavjud. Tyutor oddiy o'qituvchidan farq qiladi, u yangi tiptagi o'qituvchi. Hozirgi rivojlangan davrda masofada tyutorlik faoliyatini amalga oshiradigan tyutorlarning soni

ham anshayin kata. U masofaviy o'qitishning farqli xususiyatlarini yaxshi biladi, bilim olish va o'zlashtirish jarayonida yordam ko'rsatadi, masofaviy o'qitish jarayonini nazorat qilib boradi. Tyutorlik faoliyati talabalarning ta'lim jarayoniga javobgar bo'lib quyidagilarni amalga oshiradi:

- Talabalarning zaruratlarini aniqlash;
- Qulay ta'lim sharoitini tashkil etish;
- Talabalarning rejalarini va maqsadlarini aniqlashtirish;
- Talabalarning ta'lim olishi uchun zarur bo'lgan manbalarni aniqlash;
- O'ziga biriktirilgan guruh talabarlari bilan o'zaro munosabatni mustahkamlash va hamkorlikda ish olib borish;
- Talabalarning ta'lim jarayonidagi mustaqil ish va boshqa topshiriqlarni bajarishda analiy yordam berish;
- O'zini-o'zi rivojlandirib borish.

Talabalarning ijtimoiy hayoti va ta'lim jarayonini nazorat qilib borish.

Tyutorlik ko'plab olimlar (N. Yu. Belyakova, T. M. Kovaleva, N. V. Rıbalkina va boshqalar) tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular tyutordı quyidagicha aniqlashga yordam bergan: o'qituvchi -ustoz, o'qituvchi -maslahatchi; talabalar guruhining tyutori, murabbiy, kurator; talabalarning aloqida ilmiy rahbari, ta'lim muassasasida tarbiyachi; talabalarning shaxsiy ilmiy maslahatchisi. Izlanish ko'rsatganiday, tyutorlik yordam, qo'llab-quvvatlash, o'z taqdirini belgilashda yordamshi hisobida tushuniladi; izlash, o'zini sinash va boshqalar uchun sharoit yaratish; talabalar faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish; mustaqil ishlarni tashkil etish; o'quvchining o'qish va hayotiy muammolarni yechish uchun bilimlarni rivojlantirish va ulardan foydalanishda yordam ko'rsatish. Tyutorlik bu jarayonini amalga oshirishning samarador vositasidir.

Tyutorlik faoliyati tarixan rivojlangan va o'z vazifalarini shakllantirib kelgan faoliyat turi bo'lib, uning mazmun mohiyati haqida chet davlatlar olimlarining ilmiy ishlarini tahlil qilgan holda ularning pikrlarini o'rganib shiqdik. Masalan S.A.Shennikov tyutorlik faoliyati ularning mustaqil ta'limni tashkil qilishini hisobga olgan holda ularni maslahatshi sifatida qaraydi[5;527]. M.N. Popov va T.M.Kovalevalar esa tyutorning talabalarning maqsad va vazifalarini tushunib yetishi va ularning oliy ta'lim muassasiga ko'nikishiga yordam berishini hisobga olgan holda ularni pedagogik yordamshi sifatida talqin qiladi. Tyutorlar talabaning manaviy va madaniy o'sish jarayoniga, ularning kelajakdagi maqsadlariga yetishishiga yordam beradi. Tyutorlar oliy ta'lim muassasalarida faqatgina nazoratshi vazifasini bajarib qo'ymastan talabaning ta'lim-tarbiya jarayoni va ijtimoiy hayotiga keskin ta'sir ko'rsatadi va uning bir qansha




boshqa funktsiyalari ham bor. Misol tadqiqotshi Kulniyazov.T. tadqiqot ishida tyutorlarning qiladigan vazifalariga qarab bir nesha toifalarga ajratgan[3;46].

Tyutor- bu ta'lim muassasasida ish olib boradigan, aniq bir talablarga javob beradigan, namunali xislatlarga ega bo'lgan xizmatchi bo'lib, o'ziga birlashtirilgan guruh talabalarining ta'lim olishida, darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilishga yordam beradigan, ularni insonparvarlik, adolat, mehnatsevarlik, vatanga muxabbat ruhida tarbiyalash, besh boshlama asosida tashkiliy ishlarga va klublarga qamrash, ta'lim olish jarayonida paydo bo'ladigan barsha masala va muammoga yechim topishga qaratilgan ish faoliyatini olib boradi. Shu bilan birgalikta talabalarining rivojlanishiga, universitet, respublika va xalqaro ko'lamdagi tanlov va olimpiyadalarda munosib ishtirok etishiga, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkizishga yordam beruvchi inson bo'lib, u yigit -qizlarni kasibga tayyorlash, vatanga muhabbat tarbiyalash, turli ilmiy to'garaklarga qo'shish hamda muammlarni o'rganib, ularga atroflicha yechim topish bilan shug'ullanadi.

Hozirgi davrda dunyoning rivojlangan mamlakatlarining oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik talabalar bilan ta'lim muassasalari o'rtasida aloqani o'rnatishda katta ro'lni bajarganligini tyutorlik tarixini o'rganib chiqqanda ko'rib o'tdik. Tyutorlikni joriy qilishdagi asosiy maqsad ham zamonaviy ta'limga javob beradigan talabalarni tarbiyalash hisoblanadi.

Quyidagi grafada Yevropaning oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatining qay ravishda faoliyat yuritishi haqida qisqacha tushincha berilib o'tilgan. Bunda tyutor faoliyatning asosiy funktsiyasi bu - o'qituvchi va talaba o'rtasida munosabatni mahkamlash dir. Talabalar dastlabki o'qish yili boshlanib o'qish o'rniga kelganda ularga o'qish o'rnini tomonidan tyutor bекitiladi. Tyutor talabani o'qish o'rniga moslasishida uning yordamchisi bo'lib, u yerda vujudga kelgan muammolarda yechim topishga yordam beradi. Tyutor talaba o'qishga kirgannan u o'qish o'rnini tugallayman degancha unga bevosita mas'ul shaxs hisoblanadi. Bu tizim orqali tyutor faoliyatning samaradorligi ortib, talabani bilim olish jarayonida vujudga kelgan muammlarni yechishda amaliy ko'makchi bo'ladi. Bu tizim asrlar davomida rivojlanib kelgan va Yevropa ta'lim jarayonining uzviy bo'lagi bo'lib qolgan.

Har bir oliy ta'lim muassasasining talabasi uning farzandi kabi. Ota-ona o'z bolalari uchun har doim qaygurgani kabi bugun ta'lim muassasalari va talabalarining bilim olishi, oldindagi faoliyatini to'g'rit belgilashga mas'ul ekanligini sezadi. Talabaga bilim berish, darsdan bo'sh vaqtda nima bilan mashqul ekanligi, qanday sharoitda yashashi, uning fanlardan tashqari qiziqishlari - hammasi oliygoh uchun muxim hisoblanadi. Hurmatli



2.1 rasm. Tyutorlarning bog'lovshilik vazifasi

prezidentimiz ta'kidlaganiday “Yoshlarning bo’sh vaqti – dushmanning ish vaqti”. Albatta yoshlarning bo’sh vaqtini mazmunli o’tkazish, ularning bo’sh vaqtida ta’lim olishi uchun shart -sharoitlar yaratib berish har bir oliygohning asosiy vazifasi hisoblanadi.

O’tgan davrlarda oliy ta’lim muassasalarida qanday ishlarni amalga oshirganligi bizga malum. Yaqin yillarga qadar OTM da ustozlik faoliyati asosida ish olib borilardi. Bunda kuratorlik ro'yxati professor - o'qituvchilar xohlasin-xohlaqmasin majburiy yuklama sifatida guruhlariga birlashtirilgan. Bu majburiyat yuklamasidan tashqari, o'qituvchi sifatida o'zining asosiy vazifasi hisoblangan darslar ham bor bo'lgan. O'qituvchining bir kunda 3 para darsi bo'sa, birlashtirilgan guruhlariga faqatgina qo'ng'iroq vaqtida eshiktan yoki guruh rahnamolaridan «kim bor, kim yo'q»ligin bilish, «qanday muammo bar» deb so'rashdan uzoqlashmagan. Bundan tashqari, bu kuratorlik ro'yxatida oylik maoshning 25 foiziga qadar ustama haqi to'lov belgilangan bo'lsada, kamdankam hollarda 20 foizga qadar to'langan, ko'pchilik hollarda bo'sa 5-15 foizgacha haqi to'langan.

Hozirgi globallashuv sharoitida barsha sohalarning tayanchi, fundamenti ta’limga borib taqaladi. Sababi ta’lim muassasalari jamiyat uchun kerakli va uni boshqaruvchi yetuk mutaxassislarini tarbiyalobshi maskandir. Shu sababdan, zamon talablariga mos, sabrli, atroflicha takomillashgan, maqsadlari ijodiy g'oyasiga qaratilgan yosh kadrlarni tarbiyalash, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash bugungi kun ta’lim muassasalari oldida turigan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Tyutorlik faloiyati ham ushbu maqsadlarga yo'naltirilgan. U oliy ta’lim muassasalarida tarbiya jarayonini tizimli va samarodor amalga oshirishning zarurli shakli va vositasi dir. Tyutor talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, ta’lim idorasi, respublika va xalqaro miqyosidagi tanlov va olimpiyadalarga munosib ishtirok etishiga, shu jumladan, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishiga



yordamchi pedagog bo'lib, u yigit - qizlarni kasbga yo'naltirish, vatanga sevgi ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to'garaklarga ishtirok etish va muammo va kamshiliklarini o'rganib, ularga atroflicha yechim topish bilan shug'ullanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga tyutorlik faoliyatining joriy qilinishi yoshlarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi yuzaga kelgan bo'shliqni to'ldiradi. Bu yoshlarning ta'lim –tarbiya jarayonida yuzaga kelgan kamshilik va muommolarni barataraf etishda, ularning oliy ta'lim muassasasi bilan munosabatlarning yaqshilanishiga, kelashakdagi maqsadlariga erishishida yordamshi bo'ladi desak yanglishmagan bo'lamiz. Oliy ta'limga o'qishga kirgan talabalarning atrof muhitga ko'nikishi, ta'lim muassasasi qonun-qoidalarini tushunib yetishi va kelashak uchun maqsadlarini aniqlab olish xislatlarini shakllantirish uchun o'qishga qabul qilingan davrdan boshlab talaba bilan ular bilan aloqida shug'ullanish maqsadga muvofiqdir.

Shu sababli, tyutorlikning asosiy vazifalarini bajarish, talabalarni aniq bir reja asosida ta'lim-tarbiya berish jarayonigaboshlab, zamonaviy ta'lim metodlari asosida tarbiyalash umumiy vazifamiz hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta'limga qabul qilingan dastlabki bosqich talabalarini keashakka aniq maqsad qo'ygan, o'z maqsadi yo'lida hesh narsadan shekinmaydigan komil inson qilib tarbiyalash hamma uchun ma'suliyatli vazifa hisoblanadi. Tyutorlik faoliyati esa mana shu vazifalarni bajarishda asosiy ro'lni bajara oladi.

#### Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга кураимиз. Т.: Ўзбекистон, 2017, 157-158-бетлер.
2. Edward E.Gordon. "Centuries of tutoring: a perspective on childhood education". 1988. 4p.
3. Kulniyazov T.U. O'zbekistonda yangi ta'lim konsepsiyasi sharoitida tyutorlarning amaliy faoliyatini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari. 46 b
4. Куронов М., Кодиров А., Акрамова Ш. Ёшларда мафкуравий иммунитетни шакллантириш. Т.: Маънавият, 2018, 5-бет.
5. Щенников С.А. Открытое дистанционное образование / С.А. Щенников, - М.: Наука,2012. - 527

#### РЕЗИОМЕ

Ushbu maqolada tyutorlik faoliyatining oliy ta'lim muassasalarida joriy etishning amaliy-pedagogik xususiyatlari tahlil qilingan. Shu bilan birga oliy ta'lim muassasalari talabalarining ta'lim-tarbiyasiga ta'siri haqida malumotlar tahlil qilingan.

#### РЕЗИОМЕ

В данной статье анализируются практические и педагогические особенности репетиторства в высших учебных заведениях. При этом была проанализирована информация о влиянии на образование студентов в высших учебных заведениях.

#### SUMMARY

This article analyzes the practical and pedagogical features of tutoring in higher educational institutions. At the same time, information about the impact on the education of students in higher educational institutions was analyzed.